

Neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o‘qitishda talabalar strategik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi

*Azimova Feruza Xujamkulovna
feruzatabekova888@gmail.com
Katta o‘qituvchi
Jizzax politexnika instituti*

Annotatsiya. *Ushbu maqola maqsadi neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o‘qitishda talabalarning strategik kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat. Unda strategik kompetensiyani shakllantirish uchun turli yondashuvlar, metodlar va texnologiyalarni qo‘llash, o‘quv jarayonida innovatsion boshqaruv tamoyillarini joriy etish zarurligi ta’kidlanadi. Amaliy mashg‘ulotlar va turli metodik vositalardan foydalanish orqali talabalarning bilim, malaka va ko‘nikmalari mustahkamlanishi va ular mukammal mutaxassis sifatida tayyorlanishi izohlangan.*

Kalit so‘zlar: *Neft-gaz sanoati, mutaxassislar tayyorlash, kommunikativ kompetensiya, strategik kompetensiya, ingliz tili, mashqlar tizimi.*

Методика развития стратегической компетенции студентов при обучении терминологии нефтегазовой промышленности

*Азимова Феруза Хужамкуловна
feruzatabekova888@gmail.com
Старший преподаватель
Жиззахский политехнический институт*

Аннотация. *Цель данной статьи заключается в развитии стратегической компетенции студентов при обучении терминам нефтегазовой промышленности. В статье подчеркивается необходимость применения различных подходов, методов и технологий для формирования стратегической компетенции, а также внедрения инновационных принципов управления в учебный процесс. Объясняется, что с помощью практических занятий и различных методических средств укрепляются знания, навыки и умения студентов, и они готовятся к работе в качестве высококвалифицированных специалистов.*

Ключевые слова: *Нефтегазовая промышленность, подготовка специалистов, коммуникативная компетенция, стратегическая компетенция, английский язык, система упражнений.*

Methodology for developing strategic competence of students in teaching terminology related to the oil and gas industry

*Azimova Feruza Xujamkulovna
feruzatabekova888@gmail.com
Senior teacher
Jizzakh Polytechnic Institute*

Annotation. *The purpose of this article is to develop students' strategic competence in teaching terminology related to the oil and gas industry. It emphasizes the necessity of applying various approaches, methods, and technologies to form strategic competence and the need to introduce innovative management principles into the educational process. It is explained that through practical training and the use of various methodological tools, students' knowledge, skills, and competencies are strengthened, preparing them as highly qualified specialists.*

Keywords: Oil and gas industry, specialist training, communicative competence, strategic competence, English language, exercise system.

Jahonda neft va gaz sanoatining bozor qonuniyatlari asosida rivojlanishidagi raqobat uchun sharoitlar yaratish, ishlab chiqarish, tashish, qayta ishlash samaradorligini oshirishda mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, neft va gaz sanoatini raqamlashtirish, texnologik jarayonlarni modellashtirishga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Neft-gaz sanoati mutaxassislarini tayyorlash, terminlarni o'qitish, neft-gaz sanoatining samarali faoliyat yuritishi uchun huquqiy asos yaratish, innovatsion boshqaruv tamoyillarini joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish ahamiyat kasb etadi.

Kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari sifatida strategik kompetensiya umume'tirof etilgan bo'lsa ham "strategik kompetensiya" tushunchasida hali ham noaniqlik mavjud. Yillar davomida "strategik kompetensiya" tushunchasi vaqti-vaqti bilan tadqiqotchilarning e'tiborini tortadi. Biroq, yaqin vaqtgacha o'qituvchilar va tilshunoslar madaniyatlararo muloqot jarayonining tashqi ko'rinishlariga ko'proq qiziqish bildirishgan.

Strategik kompetensiya – bu kommunikativ maqsadga iloji boricha samarali erishish uchun olingan bilim va ko'nikmalarga asoslangan strate-giyalarning yetarli repertuaridan foydalanish qobiliyati [238].

Demak, strategik kompetensiya – kompensator ko'nikma va qobiliyatlarni (talabalarning muloqot jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengish qobiliyati) o'rganish ko'nikmalarini (olingan bilimlardan mustaqil foydalanish va o'z bilimlari va boshqa odamlarning bilimlarini to'g'ri baholash qobiliyati) o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, biz talabalar strategik kompetensiyasining quyidagi komponentlarini ajratib chiqamiz: kognitiv; motivatsion; interaktiv faoliyat. Keling, ushbu komponentlarni batafsilroq ko'rib chiqaylik.

1. Kognitiv komponent. Ushbu komponent nomi shaxsning kognitiv nazariyasidan (Cognitive theory) olinib, u kognitiv jarayonlarga (fikr yuritish, anglash, hukm chiqarish) alohida ahamiyat beradi. Adabiyotlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarga ko'ra, kognitiv komponent dunyo va o'zimiz haqimizda ahamiyatli ma'lumotlarni olish usullarini egallash, o'zini axloqiy shaxs sifatida anglash bilan bog'liq; o'zini tanish, o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini rivojlantirish, maqsad qo'yish usullari haqidagi bilimlar va tasavvurlarning rivojlanishini o'z ichiga oladi. Shu tarzda, kognitiv komponent avvalo ilmiy-nazariy bilimlarning majmuasi bilan bog'liq, bizning tadqiqotimiz kontekstida esa – umumiy kommunikativ kompetensiya va uning tizim yaratuvchi tarkibiy qismi sifatida strategik kompetensiya haqidagi bilimlar bilan. Albatta, talabaning strategik kompetensiyasini rivojlantirish uchun ushbu kompetensiya doirasida tegishli tasavvurlar va bilimlarni shakllantirish zarur.

Shu tarzda, strategik kompetensiya strukturasi ichidagi kognitiv komponent talabalar tomonidan kommunikativ strategiyalar haqida bilish darajasini ta'minlaydi, bunda bu bilim egallanadi va erkin ravishda qayta tiklanishi mumkin.

2. Motivatsion komponent. Motivatsion komponent talabalarning dunyo, faoliyat, odamlar, o'zlari, qobiliyatlari, ularning rivojlanishiga nisbatan motivatsion-qiyamatli va hissiy-irodali munosabatlar tizimini asoslash imkonini beradi. U motivlar, maqsadlar, professional ta'lim olish, o'zini-o'zi tarbiyalash, o'zini rivojlantirish talablarni o'z ichiga oladi. Motivatsion komponent shaxsiyatning ijodiy namoyon bo'lishini rag'batlantiradi va professional faoliyatga bo'lgan qiziqishni, bilimga ehtiyojni, samarali tashkil etish va o'zaro faoliyat ko'nikmalarini egallashni o'z ichiga oladi.

3. Interaktiv-faoliyat komponenti. "Interaksiya" atamasi ingliz tilidan "interaction" – o'zaro ta'sir, bir-biriga ta'sir qilish, harakatlarni muvofiqlashtirish degan ma'noni anglatadi; "inter-" "o'rtasida; o'rtacha; o'zaro" degan ma'noni anglatadi (Apresjan, 1999; 49). Interaksiya, bir tomondan, ta'lim jarayonining sub'ektlari o'rtasida bevosita o'zaro ta'sirda, ularning harakatlarini muvofiqlashtirishda, hamkorlikda, o'zaro tushunishda amalga oshadi; boshqa tomondan, bunday

o‘zaro ta‘sir jarayonida talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlar amalga oshiriladi va ularda tegishli ko‘nikmalar va malakalar shakllanadi. M.R. Bityanova fikriga ko‘ra, interaksiya bu o‘zaro harakatlar almashinuvidir, ya‘ni shaxslar o‘rtasida shaxslararo o‘zaro ta‘sirni tashkil etishdir (Bitjanova, 1994; 27). Bunday o‘zaro ta‘sir davomida sub'ektlarga "faqat axborot almashish emas, balki harakatlar almashishni tashkil etish, umumiy faoliyatni rejalashtirish, birgalikda amalga oshiriladigan harakatlarning shakl va me‘yorlarini ishlab chiqish" muhimdir.

Shu tarzda, interaktiv-faoliyat komponentini shakllantirish talabalarning kommunikativ faoliyatdagi strategik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini nazorat qilish va tuzatish, bilim va ko‘nikmalarni chuqurlashtirish vazifalarini hal qilishga yordam beradi.

Amaliy mashg‘ulotlarda neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o‘qitishda mashqlardan foydalanish

Hozirgi kunda ingliz tilini o‘rganish jarayonida bir qator yondashuvlar, tamoyillar, texnologiyalar va metodlar taklif etilgan. Shu bilan birga, bu atamalar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, birgalikda yagona tizimni tashkil etadi, ya‘ni *yondashuv*, *tamoyil*, *texnologiya* va *metodlarning* to‘plami metodik tizimni shakllantiradi. Bu nuqtai nazardan, “*yondashuv*” tilni o‘rgatish va o‘rganish jarayonlarini aniqlash uchun ishlatiladigan taxminlar to‘plamidir. “*Metod*” esa til materialini o‘rganishga yo‘naltirilgan rejalashtirilgan usulni anglatadi. *Tamoyil (prinsip)* esa o‘quv jarayonini aks ettiruvchi metodik hodisadir.

Bizga Yevropa Kengashi ekspertlarining va “Ummum Evropa kompetensiyalar” mualliflarining konsepsiyasi e‘tiborimizni tortdi, ular turli xil nutqiy faoliyat turlarini amalga oshirishda strategiyalarning turli yo‘nalishlaridan foydalanish nuqtai nazarini qo‘llaydilar, shu bilan birga qabul qilgan (Strasburg, 2001; 59): *reseptiv* (tinglash va o‘qish), *produktiv* (so‘zlash va yozish), *interaktiv* (yozma shakldagi dialogik o‘zaro aloqa) va *mediativ nutqiy faoliyat* (talqin, tarjima). Shu bilan birga, “Ummum Evropa kompetensiyalar”da tasvirlangan strategiyalar bloklari quyidagilar uchun ishlatiladi: – matnlarni yaratish; – matnlarni qabul qilish; – interaksiya; – mediatsiya. Strategiyalarni qo‘llash, olimlar tomonidan turli xil kommunikativ faoliyat turlariga qo‘llanadigan quyidagi tamoyillar sifatida qaraladi: *rejalashtirish*, *amalga oshirish*, *nazorat va tuzatish*.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha to‘plangan ma‘lumotga ko‘ra, biz “Ummum Evropa kompetensiyalar” tasvirlagan tamoyillarga asoslanib, neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o‘qitishda talabalarning strategik kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida *rejalashtirish*, *amalga oshirish*, *nazorat va tuzatish* tamoyillarini ko‘rib chiqdik:

Rejalashtirish: – takrorlash; – auditoriya xususiyatlarini hisobga olish; – ma‘lumot manbalariga murojaat qilish; – vazifani tuzatish; – mazmun bo‘yicha ifodani tuzatish.

Amalga oshirish: – mavjud bilimlarga tayanish; – ifodani tuzishga harakat qilish.

Nazorat: – muvaffaqiyatni nazorat qilish.

Tuzatish: – xatolarni tuzatish; – xatolarni mustaqil tuzatish.

Shu tarzda, talabalarning strategik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini nazorat qilish va tuzatish, bilim va ko‘nikmalarni chuqurlashtirish vazifalarini hal qilishga yordam beradi.

Dunyo tajribasida tillarni o‘rganishda turli yondashuvlar qo‘llanib kelingan va ular doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. Masalan, G.V. Rogova ingliz tilini o‘rgatishda 5 ta yondashuvni (ongli yondashuv (Conscious approach), amaliy yondashuv (Practical approach), strukturaviy yondashuv (Structural approach), situativ yondashuv (Situational approach), turli xil yondashuv (Different approach)) taklif etgan (Rogova, 1998; 155). Shu bilan birga, olim K. Alimova esa ingliz tilini o‘qitishda 4 ta yondashuvning muhimligini ta‘kidlaydi: og‘zaki yondashuv (Oral approach), ongli yondashuv (Comprehension approach), kommunikativ yondashuv (Communicative approach), kognitiv yondashuv (Cognitive approach) (Alimova, 2016; 161). Biz K. Alimovaning qisman fikrlarga qo‘shilgan holda, mavzumizdan kelib chiqib, yondashuvlarni quyidagilarga ajratdik: *ongli yondashuv (Comprehension approach)*, *og‘zaki yondashuv (Oral approach)*, *kommunikativ yondashuv (Communicative approach)*, *strategik yondashuv (Strategic approach)*. Fikrimizcha, til o‘rganuvchilarga tilni turli xil vaziyatlarda qo‘llashni o‘rganishlari, individual va jamoa bo‘lib amaliy qo‘llashlariga imkoniyat yaratadi. Fikrimizcha, ingliz tilini o‘qitishda yuqorida qayd etilgan

yondashuvlardan kombinatsiyalashgan *ongli yondashuv, og'zaki yondashuv, kommunikativ yondashuv, strategik yondashuvlar* muhim ahamiyat kasb etadi va neft-gaz sanoatiga yo'nalishida til o'rganuvchilarga ingliz tilini turli xil vaziyatlarda qo'llashni o'rganishlari, individual hamda jamoa bo'lib amaliy qo'llashlariga imkoniyat yaratadi.

Eksperimental tadqiqot doirasida biz keng miqyosda quyidagi *vositalardan* foydalandik: paralingvistik vositalar (mimikalar, qo'l harakatlari va boshqalar), o'quv texnik vositalari (kompyuter, audio-, video-uskunalar, proyektor, smart-board), darsliklar, qo'llanmalar, lug'atlar, autentik materiallar: gazeta, jurnal, ish xatlari, audio- va video-materiallar. Shuningdek, o'quv jarayonini tashkil etishning quyidagi *shakllari* ishlatildi: mustaqil, juft, guruh, kichik guruhlarda ishlash, individual mashg'ulotlar, onlayn va oflayn o'qitish, suhbat va hokazo. Bundan tashqari, *mazmunga* me'yoriy hujjatlar, o'quv dasturlari, ilmiy adabiyotlar, malaka talablari, qo'shimcha materiallar, fan dasturi, ishchi o'quv dasturi, o'quv-uslubiy majmuasi, elektron qo'llanmalar va manbalar, didaktik materiallar tashkil qildi. Sungingdek, *metod* (an'anaviy va noan'anaviy metodlar, interaktiv metodlar ("Tushunchalar tahlili", "Nima uchun sxemasi", "Insert jadvali", "BBB jadvali", "Toifalash jadvali", Klaster, Blitz-so'ro'v va boshqalar)dan foydalanildi. Ularga batafsil keyingi paragrafimizda ma'lumot beramiz.

Neft-gaz sanoatiga oid terminlarni o'qitishda talabalarning strategik kompetensiyasini rivojlantirish uchun dars davomida olib boriladigan amaliy mashqlar orqali amalga oshiriladi. Til o'rganishda mashqlar tizimi, ularning tipologiyasi bo'yicha V.A. Buxbinder, I.V. Raxmanov, J. Jalolov va boshqa olimlar tadqiqotlarida turli fikrlar bildirilgan.






Tilni o'rganish, odatda, mashq qilish orqali amalga oshiriladi. Mashqlarning asosiy maqsadi til o'rganuvchilarda nutq faoliyati turlariga oid ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir. Mashqlar til o'rganish jarayonida nutq faoliyati turlarini o'rganish, osonlashtirish va tezlashtirishga yordam beruvchi o'quv vositalari hisoblanadi. Til ta'limida mashqlarning turlari va ularning tipologiyasi metodist olimlar va lingvodidaktlar tomonidan keng tadqiq etilgan. V.A. Buxbinder o'z tadqiqotlarida mashqlarning *informasion, operasion va motivasion* turlarini ajratgan va ularni bilim, ko'nikma va malaka berishga yo'naltirilgan mashqlar, deb atash mumkinligini ta'kidlagan (Buxbinder, 1979; 14). I.V. Raxmanov esa mashqlarni *til va nutq mashqlari, reseptiv va reproduktiv, aspektli va kompleks mashqlar, o'quv va sof kommunikativ mashqlar, tayyorlov va nazorat mashqlari* kabi turlarga bo'lgan (Raxmanov, 1991). Shuningdek, mashqlarning xususiyatiga ko'ra ularni *og'zaki va yozma, bir tilli va ikki tilli, mexanik va ijodiy, sinf va uy mashqlari, yakka, juft mashqlari* sifatida tasniflash mumkin. J. Jalolov va T. Sattorov kabi olimlar chet tillarni o'rganishda qo'llaniladigan mashqlarni *shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi* turlarga ajratganlar. Ularning fikricha, shakllantiruvchi mashq til materialini o'zlashtirishda, rivojlantiruvchi mashq nutqda til materialining qo'llanilishida va takomillashtiruvchi mashq esa chet tilida fikr bayon etish va boshqalarning fikrlarini tushunish maqsadida bajariladi. J. Jalolov, shuningdek, mashqlarning tayyorlov bosqichini 3 taga bo'lib, ularni *tanlov, tasnif va taqsimlash, statik prezentatsiya* kabi bosqichlarga ajratgan. Mashqlarni o'zlashtirish esa *tanishuv, taqdimot, mashq qilish, qo'llash va baholash* kabi 4 bosqichda amalga oshiriladi (Jalolov, 2012; 10). Demak, mashqlar faoliyatni egallash uchun qaratilgan va o'quv jarayonini takomillashtirish hamda mustahkamlashga yordam beruvchi amaliy harakatlardir.




Biz yuqoridagi qarashlarni qo'llab-quvvatlab, nutq faoliyatining to'rt turini integratsiyalab qo'llashga yo'naltirilgan mashqlarni tavsiya etamiz: *tinglash bo'yicha mashg'ulot* (Listening training), *eshitish xotirasini, diqqatni, tasavvurni, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun mashqlar* (Exercises for the development of auditory memory, attention, imagination, logical thinking), *o'qishni o'rganish (Learning to read), til darajasida bashorat qilish mashqlari* (Forecasting exercises at the language level), *mazmunni o'qish bo'yicha mashqlar* (Reading content prediction exercises), *matn mazmunini bashorat qilish mashqlari* (Exercises for semantic prediction of the content of the text), *yozishni o'rganish (Learning to write)*. Demak, nutq faoliyati turlari bo'yicha quyidagi mashqlar tizimini tavsiya etamiz va ularni batafsil jadvalda ochib beramiz / Exercises for the

formation of compensatory learning strategies are specific depending on the formed speech skills (1-jadvalga qarang):

1-jadval.

Mashqlar tizimi

Nutq faoliyati turlari		
№	Mashqlar tizimi	Mashqlar turlari
1.		Listening training / Tinglash bo'yicha mashg'ulot
2.		Exercises for the development of auditory memory, attention, imagination, logical thinking / Eshitish xotirasini, diqqatni, tasavvurni, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun mashqlar
3.		Learning to read / O'qishni o'rganish
4.		Forecasting exercises at the language level / Til darajasida bashorat qilish mashqlari
5.		Reading content prediction exercises / Mazmunni o'qish bo'yicha mashqlar
6.		Text content prediction exercises

		/ Matn mazmunini bashorat qilish mashqlari	kirish qismlariga asoslanib taxminlar qilish, soʻngra keng qamrovli oʻqish orqali ularni tekshirish. Har bir bosqich oldindan bashorat qilish, mavzularni oʻrganish va tushunishni tasdiqlash uchun taxminlarni haqiqiy mazmun bilan solishtirishga qaratilgan boʻlib, bu tushunish qobiliyatlarini yaxshilashga yordam beradi.
7.		Exercises for semantic prediction of the content of the text / Matn mazmunini semantik tuzatish uchun mashqlar	matndan signal soʻzlarini soʻz turiga, semantik kategoriyalariga va ahamiyatiga qarab aniqlash va tasniflash, maʼlumotning ahamiyatini aniqlash, matn strukturasi koʻrib chiqib, tushunishni yaxshilash va turli manbalardan tegishli tafsilotlarni yigʻish.
8.		Learning to write / Yozishni oʻrganish	oʻqish mazmunini taxmin qilish mashqlari quyidagilarni oʻz ichiga oladi: mavzu taxmin qilish uchun nomni oʻqish, savollarni aniqlash uchun birinchi jumlani koʻrib chiqish va matnning mazmuni boʻyicha xulosa chiqarish uchun oxirgi paragrafni oʻqish.

Yuqorida keltirilgan jadvalda mashqlar tizimi tajriba-sinovning shakllantiruvchi bosqichida oʻtkazilgan va topshiriqlar tizimi talabalar bilim, koʻnikma va malakalarining yetarlicha nazorat qilinmayotgani, talabalar oʻrgangan bilimlari bilan ularning strategik kompetensiya oʻrtasida boʻshliq mavjudligi va bu esa tinglab tushunish, gapirish, oʻqish va yozishni integratsiyalashmagan holda qoʻllanilmaganligi natijasida yuzaga kelayotganini koʻrsatdi. Mashqlar tizimi talabalar strategik kompetensiyalarini rivojlantirishga qanday taʼsir qilganini nazorat guruhlarining shu yoʻnalishdagi ishlarini taqqoslash orqali aniqlash mumkin.

Shunday qilib, neft-gaz sanoatiga oid terminlarni oʻqitishda oʻquv adabiyotlari va elektron resurslarni tanlash tamoyillari ingliz tilida neft-gaz sanoati, neft mahsulotlari, neft-gaz konlarini qidirish va oʻrganish, konlarning potensialini baholash, quduqlarni burgʻulash, maxsus uskunalardan foydalanishga oid terminlarni oʻqitishga imkon beradi.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Alimova, K., Brewerton, B., & Mukhammedova, N. (2016). *Becoming a teacher: Trainees' coursebook* (236 p.). Tashkent: Fan va Texnologiya.
2. Apresjan, Y. D., Mednikova, E. M., & others. (Eds.). (1999). *Novyj bol'shoj anglo-russkij slovar': v 3 t. [New large English-Russian dictionary: In 3 volumes]* (Vol. 2, 4th ed., stereotip). Moscow: Russkij jazyk.
3. Bitjanova, M. R. (1994). *Social'naja psixologija* [Social psychology]. Moscow: Mezhdunarodnaja pedagogicheskaja akademija.
4. Buhbinder, V. A. (1979). O sisteme uprazhnenij [On the system of exercises]. In *Obshhaja metodika obuchenija inostrannym jazykam: Hrestomatija* (pp. 92–99). Moscow: Russkij jazyk.
5. Department of Modern Languages. (2001). *Obshheevropejskie kompetencii vladenija inostrannym jazykom: Izuchenie, prepodavanie, ocenka* [European competence in foreign language proficiency: Learning, teaching, assessment]. Strasbourg.

6. Elmira, M., Gavharoy, S., & Muniraxon, O. T. (2024). THE IMPACT OF STORYTELLING TECHNIQUES ON IMPROVING SPEAKING IN A2 LEVEL LEARNERS. *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(5), 232-237.
7. Jalolov, J. (2012). *Chet til o 'qitish metodikasi* [Methodology of teaching foreign languages]. Tashkent: O'qituvchi nashriyoti.
8. Kamariddinova, M. E. The role of intercultural communication in the training for future specialist of different fields. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych*, 2, 169.
9. Moydinova, E. (2023). Raqamli ta'lim muhitida veb resurslarning didaktik xususiyatlari. *Interpretation and researches*, 1, 22.
10. Raxmanov, I. V. (1991). Nekotorye teoreticheskie voprosy metodiki obuchenija inostrannym jazykam v srednej shkole [Some theoretical questions of foreign language teaching methodology in secondary school]. In *Obshhaja metodika obuchenija inostrannym jazykam: Hrestomatija* (3rd ed., pp. 187). Moscow.
11. Rogova, G. V. (1998). *Metodika obuchenija anglijskomu jazyku* [Methodology of teaching the English language]. Moscow: Prosveshhenie.
12. Артыкбаев, М., & Мойдинова, Э. (2024). Pedagogik faoliyatni amalga oshirishda o 'qituvchining kasbiy kompetensiyasi. *Лингвоспектр*, 2(1), 39-44.
13. Мойдинова, Э. (2024). Во 'lajak ingliz tili o 'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi tuzilmasining tahlili. *Лингвоспектр*, 1(1), 36-41.
14. Мойдинова, Э. (2025). Talabalarni ta'lim veb-resurslari asosida o 'qitishning mohiyati. *Лингвоспектр*, 1(1), 297-302.